Namangandan Permga ilk parvoz amalga oshirildi

2022 30 Yanvar

2022-yil 30-yanvar kuni «Uzbekistan Airways» Aksiyadorlik jamiyati tomonidan «Sharqiy» xab loyihasi doirasida ilk Namangan – Perm yo‘nalishi bo‘yicha parvoz amalga oshirildi. Ilk reys «to‘liq iqtisodiy klass»ga o‘tkazilgan Airbus A320 havo kemasida 174 nafar yo’lovchini Rossiyaning Perm xalqaro aeroportiga eltib qo’ydi. Va bu ko‘rsatkich Farg‘ona vodiysidan Rossiya Federatsiyasi shaharlariga bo‘lgan talab yuqori ekanligini yaqqol misoli.

Uzbekistan Airways tomonidan «Sharqiy» xab tashkil etilishining asosiy maqsadi – Farg‘ona vodiysidan talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha parvoz qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. Loyihaga ko‘ra, aviakompaniya mintaqadan Rossiya Federatsiyasi va Farg‘ona vodiysi aholisi orasida mashhur bo‘lgan uzoq xorij shaharlariga yo‘nalish tarmog‘ini kengaytirish maqsadida Namangan va Farg‘ona shaharlarining xalqaro aeroportlaridan foydalanadi.

Yangi «Sharqiy» xab tashabbusi doirasida Namangan xalqaro aeroportida OAV vakillari va blogerlar uchun loyihaning taqdimot marosimi bo’lib o’tdi. Taqdimot doirasida aviakompaniya vakillari loyihaning ko’lami, parvozlar xaritasi va reyslar narxi bilan ishtirokchilarni yaqindan tanishtirdilar. Navbatdagi reyslar Rossiyaning Moskva, Samara, Omsk, Orenburg, Irkutsk, Krasnodar, Yekaterinburg va Ufa shaharlariga rejalashtirilgan.

Shuni ham ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtda Farg‘ona shahar xalqaro aeroportidan Moskva, Qozon va Istanbulga aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda, va bu «Sharqiy» xab tashkil etilishining birinchi bosqichi bo‘lib xizmat qildi. «Sharqiy» xabni rivojlantirishning ikkinchi bosqichi yakunlangach aviakompaniya Farg‘ona shahridan parvozlar sonini ko‘paytirish, shuningdek Farg‘ona xalqaro aeroportidan yo‘nalish tarmog‘ini kengaytirishga o‘tadi.